




ARXITEKTURA QISMI

Rahbar: Inog'omov B. 

Bitiruvchi: Satinbayev A.

Toshkent 2015

ARXITEKTURA QISMI

Rahbar: Inog'omov B.

Bitiruvchi: Satinbayev A.

Toshkent 2015

KIRISH

O'zbekiston buyuk kelajagining poydevori bugun qo'yilmoqda, kelajak arxitekturasining asoslari ham hozirgi avlodning bunyodkorlik mehnati bilan yaratilmoqda. Shu sababli yangi tarixiy davrda O'zbekiston arxitekturasini taraqqiy ettirish, yo'nalishlarini to'g'ri belgilash juda katta ahamiyatga ega.

Har qanday fan va kashfiyotning xam o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi mavjud bo'lgani kabi arxitektura xam o'zining barcha borlig'i bilan bundan mustasino emas. Jahon sivilizatsiyasi qanday rivojlanishidan qat'iy nazar O'rta Osiyo davlatlari ichida O'zbekiston-o'zining dunyoga mashhur bo'lgan sivilizatsiyasi va yana ayniqsa arxitektura bilan diqqatga sazovardir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin "mehmonxona" binolariga bo'lgan talab yanada ortdi. Tashrif buyurotgan mehmonlar extiyojini to'la ta'minlash maqsadida nafaqat ko'p sigimli, balki xozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlarda xam qurilish keng tus olgan, kam sig'imli mehmonxonalar ham O'zbekistonda ko'plab qurila boshladi. Ayniqsa ota-bobolrimiz bizga meros qilib qoldirgan bunday qadimiy bunyodkorlik ishlari O'zbekistonimizning Toshkent, Samarqand, Buhoro, Xiva, Shahrisabz, kabi ko'hna Shaharlarida saqlanib qolgan bo'lib, bu yodgorliklarni xozirgi kunda butun dunyoda sayyohlar kelib o'z ko'zi bilan ko'rib xayratda qolmoqdalar.

Mana shu shaharlarda barpo etilgan qadimgi arxitektura yodgorlikari qurilishi ko'pgina sir-asrorlarga boy bo'lib, bunday ajoyib binolarning qadimiyligi, arxitekturaviy shakllarining yorqinligi va g'ayrioddiligi

bilan ko'pgina sayyohlar xamda shu bilan birga tadqiqotchi, izlanuvchilarni o'ziga jalb qilib kelmoqda va buning natijasida O'zbekistonga tashrif buyuruvchilar soni kundan-kunga ko'paymoqda.

Arxitektura qadimda jamiyatning mavjud g'oyalarini aks ettirishga, davlat ehtiyojlarini qondirishga intilgan. Shu boisdan respublikamiz me'morlari yuz berayotgan ulkan o'zarishlarga baholi qudrat o'z ulushlarini qo'shishga intilmoqdalar. Ilk qadamlar, yillar bo'yi tugallanmay qolgan qurilishlarni nihoyasiga yetkazishni tartibga solishdan boshlandi. Shulardan, "Navro'z" restorani va "Baxt uyi" majmuasi, "Turkiston" saroyi, yirik jamoat binolari, maktab, bog'cha va yaslilar, turar joy massivlari qurib bitkazildi.

Shunisi quvonarliki, istiqlol g'alabasidan so'ng respublikamiz rahbariyati siyosatida o'zligimiz manbalariga murojat qilish iqtisodiy, moddiy, huquqiy va boshqa muammolar qatorida dolzarb masala bo'lib qoldi. Xususan prezident Islom Karimov farmoyishi bilan poytaxtning xushmanzara go'shasida buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur xaykali o'rnatilib, xiyobon va muzey bunyod etilishi, Samarqandda, Shahrisabz va boshqa joylarda Temur nomini abadiylashtirish bilan bo'g'liq bo'lgan qurilishlar va obodonchilik ishlarining amalga oshirilishi ulug' bobokalonimizga cheksiz ehtirom namunasi hisoblanadi. Sheriyat mulkining sultoni Alisher Navoiy xaykali va "Milliy bog" ning yaratilishi, Namanganda Mashrab va Andijonda Bobur bog'larining xamda Buxoro viloyatida "Xoja Baxovuddin Naqshband" me'moriy majmuasi ta'mirlanib, katta obodonchilik ishlari bajarilishi istiqlolimizning dastlabki qadamlaridir. Diyorimiz avvaldan yirik madaniyat o'chog'i bo'lgan. Binobarin, biz boy tarixiy, me'moriy va madaniy merosga

egamiz. Bu boy merosni butun dunyoga tanitgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan Buxoro va Xivaning katta to'ylari nishonlanishi va shu munosabat bilan qisqa muddat ichida amalga oshirilgan qurilishlar va ajdodlarimiz yodgorliklarini, maqbaralarni tiklash kabi bunyodkorlik ishlari xajmi jihatidan asrlarga tengdir. Jumladan, xadisshunos olim buyuk alloma Imom Al-Buxoriy tavvaludining hijriy 1225 yilligi munosabati bilan Samarqand viloyati Chelak tumaning Xartang qishlog'ida an'anaviy milliy memoriy majmua barpo etildi.

Bu majmuada maqbara masjid, ma'muriy bino, kutubxona va oshxona kabi inshootlar juda ko'rkam va qulay joylashtirilgan bo'lib, yurtimizda din arboblari qabri ustida keyingi asrlarda bunyod etilgan ulkan va noyob inshootdir. Prezidentimiz tashabbusi bilan Vatanimizning bosh maydoni – Mustaqillik moydonida xalqimizning tarixiy xotirasi va qadrlash salohiyatini yanada mujassamlashtiruvchi aziz maskan bunyod etildi. O'zbek xalqi o'zining ajoyib urf-odatlaridan biri mehmondo'stligi bilan olamga mashhur. Vatanimizga kelgan mehmonlar va ayniqsa, xorijlik mehmonlar xalqimizning samimiyligidan, yurtimizning tinch va osoyishtaligidan, dasturxonimizning to'kinligidan, keyingi paytlarda ular uchun qurilgan xar tomonlama qulayliklarga ega bo'lgan shinam va ko'rkam mehmonxonalardan mamnun bo'lmoqdalar. Mustaqillik yillarda bunyod etilgan dunyo standartlariga mos keladigan Toshkentdagi “INTERKONTINENTAL”, fransuzlar bilan xamkorlikda bunyod etilgan “SHERATON”, Xindistonliklar bilan xamkorlikda qurilgan Samarqanddagi “AFROSIYOB”, Buxorodagi “BUXORO” va Toshkentdagi “MERIDIAN” kabi yangi mehmonxonalarning qulayligi, ko'rkam zamonaviy arxitekturasi, texnikaviy, muhandislik xizmatlarini xalq etishga ijobiy tejamkorlikdan tashqari, shaharsozlikda ham yaxlit arxitektura ansambllarini yaratadi. Kam sig'imli mehmonxonalar hozirgi kunda tarixiy shaharlarda ham qurilmoqda. Tarixiy sanalgan Samarqand shahrida ham kam sig'imli mehmonxonalarni ko'plab uchratish mumkin.

Samarqand shahridagi – kam sig'imli mehmonxonalarga misol qilib "Zarina", "Sevara", "Malika – Samarqand", "Kamila" , "Barakat", "Premyer Haus", "Furqat", "Sherdor", "Orien star" mehmonxonalari shular jumlasidandir.



Suratda: Toshkent. “Interkontinental” mehmonxonasi.

"Malika – Samarqand" mehmonxonasi. Samarqand shahridagi “Malika–Samarqand” mehmonxonasi yuqorida aytib o'tilganidek, zamonaviy arxitektura uslubida qo'llanilgan. Shu bilan birga milliy arxitektura uslublarini saqlab qolishga harakat qilingan. Hovlidagi supalar, arkalar, ustunlar, bazi nomerlarning jihozlanishida milliylik aks ettirilgan. Malika – Samarqand mehmonxonasi Samarqand shahrining “Hamroyev” ko'chasida joylashgan bo'lib, 26 ta nomerdan iborat. Bu mehmonxonada 1 va 2 kishilik nomerlar mavjud. Shuningdek, mehmonxonada restoran, banketlar, konferensiyalar o'tkazish uchun zal va 2ta hovli bo'lib, bu hovlilarda dam olish yoki ovqatlanish mumkin.



Samarqanddagi “Afrosiyob” mehmonxonasi

"Orient Star" mehmonxonasi. "Orient Star" mehmonxonasi Samarqand markazining tarixiy arxitektura yodgorliklaridan unchalik uzoq bo'lmagan, shaharning yuqorisi hisoblangan joyda, “Dagbitskaya” ko'chasida joylashgan. Mehmonxona 35 ta nomerni o'z ichiga olgan bo'lib, shulardan to'rttasi lyuks nomerlar hisoblanadi. Nomerlar asosan zamonaviy uskunalar, bilan jihozlangan. Bularga misol qilib zamonaviy shamollatish uskunasi bo'lgan konditsioner, sputnik telivideniya, to'g'ridan-to'g'ri xalqaro aloqalarga bog'lanish uchun telefonlar va shu kabi uskunalar bilan jihozlangan.

Bino restoranining tashqi ko'rinishidagi gumbaz esa milliy-tarixiy arxitektura uslubini eslatadi va bu joyda mehmonlar uchun o'zbek milliy xamda yevropa taomlari buyurtma asosida tayyorlanadi. Mehmonlar dam olishlari, oftobda toblanishlari uchun basseyn xam mehmonxonaning arxitekturaviy - kompzitsiyasi birligini yaratgan. Binoda milliy buyumlar sotib olish mumkin bo'lgan imkoniyatlar ham mavjud, ya'ni mehmonxona o'z do'koniga ega, bo'lib, bu do'konida xorij mehmonlari

maxalliy aholining hunarmandlik ishlaridan namunalar, rassomlar san'ati, turi xil milliy liboslar xarid qilishlari mumkin.

"Sherdor mehmonxonasi". Bu mehmonxona 2004 yilda qurilgan. Mehmonxona Samarqand shahrining markazi hisoblanadigan "M.Qashqariy" ko'chasida joylashgan. Bino asosan 20 nomerdan iborat bo'lib, bir kishilik, ikki kishilik va lyuks no'merlardan iborat. Mehmonxonada restoran, bar, mehmonona seyfi, chekuvchilar uchun alohida nomer hamda bino tashqarisida avtomashinalarni to'xtash joyi ajratilgan. Mehmonxona o'z xovlisiga ega bo'lib, bu yerda milliy urf-odatlariga xos supalar qo'yilgan. Binoning arxitekturaviy tarzi ya'ni tashqi ko'rinishida milliy arxitektura uslublari qo'llanilgan. Biz bu mehmonxonada anketa so'rovnomasi o'tkazilganda, mehmonxonadagi mehmonlar bu binoning bir qancha qulayliklari va bunday mehmonxona qurilishlarini yanayam shakillantirish kerakligi to'g'risida o'z fikrlarini bildirishgan.

Samarqand shahrida joylashgan kam sig'imli mehmonxonalarda ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilganda, bu shaharda ham yuqorida keltirilgan kam sig'imli mehmonxonalar ko'p sonli ekanligining guvohi bo'ldik. Bu mehmonxonalarning tashqi ko'rinishi, ularning jihozlanishi, arxitekturaviy-tarixiy yechimlari o'rganib chiqildi.



Suratda: “O‘zbekiston” mehmonxonasi

Samarqand shahrida joylashgan kam sig'imli mehmonxonalarda ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilganda, bu shaharda ham yuqorida keltirilgan kam sig'imli mehmonxonalar ko'p sonli ekanligining guvohi bo'ldik. Bu mehmonxonalarning tashqi ko'rinishi, ularning jihozlanishi, arxitekturaviy-tarixiy yechimlari o'rganib chiqildi. Bu mehmonxonalarning ko'pchiligida boshqa shahar mehmonxonalaridagidek ilmiy asoslangan qurilish me'yori yo'qligi sababli binolarning arxitekturaviy-tarixiy, kompazitsion, tipologik yechimlari turlicha yechilgan. Ba'zi mehmonxonalar no'merlari juda kichik o'lchamda bo'lib tashrif buyurgan mehmonlar uchun noqulay sharoitlarni tug'dirmoqda. Mehmonlar bilan o'tkazilgan anketa surovnomasida ular ovqatlanish joyi kichik o'lchamda ekanligini aytishgan edi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinganidan keyin mamalakatimizda sayohatchilikni iqtisodiy samaradorligining ko'p

miqdorda ortib borishning kengayishi natijasida zamon talabiga mos keladigan jahon standartidagi "Mehmonxona" majmualari keng ko'lamda qurila boshladi. Bularga misol qilib, "Interkontinental", "Sheraton", "Li meridian", mehmonxona majmualarida barcha sharoitlar mujassam bo'lib, zamonaviy uslubda qurilgan. Bunday qulayliklarni boshqa mehmonxonalarda ham yaratib berish maqsadida shahrimizda mavjud bo'lgan bir-nechta mehmonxonalar qayta ta'mirlandi. Shaharlarning serqatnov joylari bilan bevosita bog'liq bo'lgan joylarda, Toshkentning asosiy avtomagistral yo'llarida joylashgan "Do'stlik", "Turon", "Toshkent", "Grand mir" mehmonxona majmualarida O'zbekistonga tashrif buyurgan har bir mehmonga har tomonlama qulay sharoitlar bo'lishi uchun ta'mirlash ishlari olib borildi. Ba'zi mavjud bo'lgan mehmonxonalar nomlari o'zgartirildi. "HOTEL DEDEMAN SILK ROAD" (Do'stlik), "SUNSHINE-TURON INTERNATIONAL LTD" (Turon), "LE MERIDIEN TASHKENT PALASE HOTEL" (Toshkent), "CROWN HOTEL MIR" (Rossiya) mehmonxonalarning qayta ta'mirlanishi bilan birga shahrimizda mehmonxonalar soni yana bittaga ko'paydi. Mavjud bino qayta ta'mirlanib, mehmonxona nomini oldi. Bu mehmonxona to'rt yulduzli mehmonxona bo'lib, shaharning markazi bo'lgan Amir Temur ko'chasida, Xalqaro Savdo-Ko'rgazma Majlisi ro'parasida joylashgan.

Bu mehmonxonalarning qayta ta'mirlanishi natijasida Toshkent mehmonxonalari o'ziga xos takrorlanmas arxitekturaviy-fazoviy yechimga ega bo'ldi. Biz har qanday loyihalarni amalga oshirmaylik, qadimiy merosimiz bo'lgan me'morchilik obidalaridan oqilona foydalangan holda milliylik an'analарimizni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirgan holda, bu binolar kelajak 100 yilda ham yashnab

turishiga va xalq uchun qulay bo'lishi, ularga xizmat qilishi, bularning barchasini oldindan ko'ra bilishimiz va shunga asoslangan holda loyihalashimiz va ko'rishimiz darkor.



Suratda: Toshkent. “Dedeman Silk Road” mehmonxonasi

O'zbekiston haqiqatda ham xorij sayohatchilari uchun ko'rkam mamlakatlardan biri hisoblanadi. Shunday ekan xorij mehmonlari noqulaylikni his qilmasliklariga erishish uchun, texnik baza bo'lgan mehmonxona majmualariga va undagi xizmat ko'rsatish darajasi kabi xizmatlarga hozirgi kunda e'tibor ko'chaytirilmoqda.

Mehmonxonalar – yirik mehmonxonalar majmuasi, katta mehmonxonalar, uncha katta bo'lmagan kam sig'imli mehmonxonalar turlariga bo'linadi. Mehmonxonalarni xalqaro jihatdan olib qaraganda, aniq yagona turlanishi mavjud emas va bu har bir mamlakatda o'ziga xos turlanadi. Mehmonxonalardagi xizmat ko'rsatish turli xil

mamlakatlardagi standart sifatida ba'zi bir yagonaliklarga olib kelishi uchun sektariat xodimlari butun jahon sayohatchilik tashkilotlari ishlab chiqarishga "Mehmonxonalar turlarining o'lchovlari halqaro takliflar asosida uyg'unlashtirilgan". Unda keltirilgan binoga va nomerlarga bo'lgan minimal talablar, jihozlanishiga va mebellariga, energetik va suv bilan ta'minlash, issiqlik ta'minoti, gigiena, xavsizlik, aloqalar, oshhona, mehmonxona xizmati va xodimlarning xizmat ko'rsatuvi kabi bir qator talablar qo'yilgan. Mehmonxona sinflarini ajratib turadigan timsol sifatida “ * ” (yulduz) belgisidan foydalaniladi.



Suratda: Toshkent. “Le Grande PLAZA” mehmonxonasi.

Mehmonxonalar uchun bittadan to beshta yulduzli turli mohiyatli kategoriyalar ko'rsatiladi. Ko'rsatmalardan har bir kategoriyadagi mehmonxonalarga qo'yiladigan ba'zi bir talablarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, mehmonxona no'merlarining jihozlanishi, ovqatlanish joylarining mavjudligi, xizmat ko'rsatish darajasi hamda umumiy foydalanish o'rnini quyidagicha amalga oshiriladi.

Bir yulduzli *- hisoblangan mehmonxonalarda nomerlar jihozlanishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu nomerda xodimni chaqirib olish uchun ichki telefon aloqasi (yoki tugmacha), shaharlararo telefon, nomerlarda 25% dan kam bo'lmagan sanuzel uskunasi, sanuzelsiz xar bir nomerda tepasida oynasi bilan yuvinish moslamasi bitta yoki ikkita kishilik krovat, shkaf, stol, stul, stakanlar, shisha ko'zacha, guldon kabi narsalar bilan jihozlanadi. Bitta yulduzli mehmonxonalarda ovqatlanish joylari mavjud bo'lmaydi va mehmonxonaning xizmat ko'rsatish darajasiga to'xtaladigan bo'lsak, mehmonxonada sutkalik qabul qilish, taksi chaqirtirish, ma'muriy bo'limning sutkasiga 12 soat ishlashi, har kuni xonani tozalash, dazmollash, mayda remont ishlari, yuklarni va qimmatbaho buyumlarni ma'muriyat bo'limida saqlash, besh kunda bir martda choyshablar almashtirish, pochta va tibbiy xizmatlardan foydalanish, sayohatchilik axboroti kabi xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Bu turkumdagi mehmonxona binosida umumiy foydalanish joylari, jamoat xonalariga yaqin xojatxonalar va qavatlarda (kamida 1 dan 5 gacha bo'lgan nomerlardan keyin) vanna xonalar, dush (kamida 2 ta qavat oralig'i), xizmat ko'rsatish joylari, mehmonlar qabul uchun zarur barcha jihozlar, teleko'rsatuvlar ko'rish uchun xona kabi umumiy foydalanish o'rinlari mavjud bo'ladi.

Ikki yulduzli ** - mehmonxonalar nomerlarining jihozlanishida, bu yerda kamida 50% nomerda sanuzel, albatta shahsiy telefon apparat nomeri, xuddi oldingi kategoriyadagidek mebellar, hamda dam olish uchun kreslo, mehmon talabiga asosan bolalar krovatini qo'yish, telefon so'rovnomasi va xuddi (*) mehmonxona kategoriyasidagi kabi boshqa jihozlar bilan jihozlanadi. Bunday kategoriyadagi mehmonxonada

ovqatlanish restoran yoki kafe: bo'limi, xoxlagan ovqat variantini tanlash (2 martalik, 3-martalik ovqatlanishga doir nomerda xizmat ko'rsatish) mavjud bo'ladi. Mehmonxonaning xizmat ko'rsatish darajasi esa huddi (*) kategoriyali mehmonxona xizmatlarida mujassam bo'lib, choyshablarni 3 kunda bir marta almashtiriladi. Umumiy foydalanish joylari huddi yuqorida keltirilgan kategoriya singari bo'ladi.

Uch yulduzli *** - mehmonxonalar nomerlarining jihozlanish quyidagicha: barcha nomerlarda shaharlararo telefon, hamda har bir nomerda sanuzel, vanna yoki dush, konditsioner, mehmon iltimosiga ko'ra televizor, xar bir nomerda muzlatgich, katta o'lchamdagi krovat, yozuv stoli, ishchi kreslosi bilan va xorij tillaridagi axborot materiallari (gazeta, jurnal) bilan jihozlanadi. Ovqatlanishga oid o'rinlar esa xuddi (**) yulduzli kabi, faqat qo'shimcha “bar” bo'lishi mumkin. Xizmat ko'rsatish darajasi ham yuqorida keltirilgan kategoriya kabi va bu xildagi mehmonxonada nomerni oldindan band qilish, chipta yoki avtotransport uchun buyurtma berish, tarjimon, yo'lboshchi-instruktorlar xizmatlari bo'ladi.



Suratda: Toshkent. “Grand Mir” mehmonxonasi.

To'rt yulduzli **** – mehmonxonalarning nomerlari jihozlanishi ham (***) yulduzli mehmonxona singari, faqat, bu yerda ko'p xonalik nomerlarda qo'shimcha tualet, vanna xonada shampun, gel, ustara asbobi, vanna uchun tuz, xalat, nomerda seyf, oraliq masofani saqlab turish uchun barcha boshqarma manbalar uchun vklyuchatel, xona xaroratini ma'lum bir xolatda saqlab turadigan asbob, boshqaruvi aloqa masofasi bilan televizor va barcha dunyoning asosiy telekompaniyalari dasturlari xar bir nomerda, mini bar, budilnik, gilamlar yoki gilamli yopma pol, yumshoq mebel, jurnallar uchun stol, qimmatbaho yog'och mebel, xar bir xonada ko'zgu, katta o'lchamdagi krovat mavjud bo'ladi. Mehmonxonadagi ovqatlanishga oid xonalardan: restoran, kafe va bar, sutkali ishlab turuvchi kafe, bir nechta zallardan iborat restoran, restoranda alohida kabinetlar, banket zallari, konferensiya zali soat 7 dan kechki 24 gacha xizmat qiladi. Mehmonxonada xizmat ko'rsatish darajasi quyidagicha: uchrashuvlar tashkil qilish, darvozabon, sutkali ma'muriyat bo'limining xizmati, ijaraga avtomashina olish, yuklarni eltib berish, xar kuni xonani yig'ishtirish va mehmonning ham talabini inobatga olish, kun davomida nomer holatini nazorat qilib turish, dazmollash, buyurtmani eltib berish yoki olib kelish, bilet buyurtma qilish, turli-xil transport ko'rinishlari, sayohat, biznes markaz xizmati, nusxa ko'chirish asbobi kabi xizmatlar mavjud bo'ladi.

Besh yulduzli ***** - mehmonxonalar nomerlarining jihozlanish quyidagicha: oldingi kategoriya kabi jihozlar va yana qo'shimcha sochni quritadigan fen, vanna xonada polni isitish, nomerda katta maydon, signalizatsiya muxofaza zonasi yoki elektron asbob-uskunalar nazorati,

nomerlarning xavsizligi, vannaxonada telefon apparati kabi jihozlar bo'ladi. Ovqatlanishga oid xizmatlarning bo'lishi oldingi kategoriya singari, hamda nomerda xizmat qilish sutkali va ertalabki tushlikni soat 11⁰⁰ gacha tugatmaslik. Mehmonxonada xizmat ko'rsatish esa yengil mashina turadigan maydon (mehmonxona xodimlari uchun ham) va mehmonga garajdan avtomobilni olib kelib berish yoki olib borib qo'yish, umumiy foydalanish oldingi kategoriyadagidek shuningdek suzish uchun xovuz, kechki klub bo'lishi mumkin. Mavjud mehmonxonada talab darajasi kategoriyadan kelib chiqadi.



Suratda: Toshkent. “Markaziy” mehmonxonasi.

Mehmonxona ekologik obodonlashtirilgan sharoitlar bo'lgan joyda joylashtirilishi maqsadga muvofiq. Mehmonxonada har bir mijoz xayotining xavsizligi, sog'lig'i va ularning mulkini saqlash uchun bino majmuasi to'la ta'minlangan bo'ladi. Shular bilan birga mehmonxona quyidagi kerakli uskunalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak:

- Sovuq va issiq suv bilan ta'minlangan (sutkalik) suv ta'minotini qo'shimcha saqlab qo'yish (kamida bir sutkada)
- Kanalizatsiya;

- Q 18 dan kam bo'lmagan xaroratni issiqlik ta'minotida ushlab turish;
- ventilyatsiya(tabiiy yoki suniy) o'rtacha havo xaroratini va o'zgacha xillarni nomerdan yo'qotish va jamoat xonalarida ham;
- radio va televideniya (barcha nomerlarda ulangan bo'lishi kerak);

Zamonaviy mehmonxona murakkab mexanizm bo'lib, bir nechta turdagi funksional xonalar guruhlaridan tashkil topadi hamda uning alohida qismlari o'ziga xos texnologik bo'g'lanishlarga ega bo'ladi. Mehmonxona binosida asosiy funksional xonalar guruhiga qabul qilish va xizmat ko'rsatish xonalariga kirib ularni vestibul guruhi deb atash mumkin; yashash xonolari guruhi xizmatchi-yordamchi va xo'jalik xonolari, shuningdek, injenerlik jihozlari xonolari guruhi shular jumlasidandir. Xoll yoki vestibul guruhi kam sig'imli mehmonxonaning barcha asosiy xonalarini bog'lovchi bo'lib mehmonxona to'g'risida ilk tasvurni beradi. Vestibul guruhining asosiy funksiyalari quyidagicha: qabul, tashrif buyuruvchilarni rasmiylashtirish va joylashtirish, ular bilan hisob-kitob ishlarini olib borish, mehmonxona to'g'risidagi turli ma'lumotnomalarni berish va boshqalar. Vestibulda aniq zonalashtirish qoidalariga amal qilinishi zarur ya'ni kelayotgan, yashayotgan, ketayotgan mehmonlar, ishchi xizmatchilar, davriy tashrif buyuruvchilar oqimi va yuklarni xonalarga va avtobuslarga yetkazib berish yo'llarining eng kam kesishuvchanligiga erishish kerak.

Loyihalashtirilgan mehmonxona arxitekturasini

Men loyihalashtirilgan Toshkent shahri uchun “500 o'rinli mehmonxona” majmuasi, Shayhontohur tumanida joylashgan bo'lib, uning atrofida savdo maskanlari va turar joy binolari joylashgan. Bu mehmonxona binosi 10 qavatli bo'lib, o'ziga xos konstruktiv yechimga ega va ko'rkamligi bilan ajralib turadi.

Bu mehmonxona “Furqat” va “Alisher Navoiy” ko’chalari kesishuvida joylashgan. Bino H harfi shaklida loyihalangan. Binoning 1- qavati yer ostida joylashgan. Mehmonxona binosi to’rt blokdan iborat. Binoning orqa qismida dam oluvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida ochiq basseyn va bir qator sport maydonchalari joylashtirilgan.


Mehmonxonaning ikki yon tomonida avtomobillarni vaqtinchalik qo’yish uchun maydonlar joylashtirildi. Bundan tashqari mehmonxona atrofida favvoralar va landshaft zonalari tashkil qilindi. Mehmonxonadagi supermarket va restoran mehmonlar va shahar aholisi uchun xizmat ko’rsatishga mo’ljallangan.

Mehmonxona qurilishida Hi Tech uslubi va milliy grixlardan foydalanildi. Binoning fasad qismida oq marmar, travertin toshi va qizil granitdan (kapusta) foydalanilgan. Mehmonxona atroflaridagi yerlarga 2 xil bruschatkalar terilgan. Kirish qismida yomg’ir va qordan humoya qilish maqsadida qalinligi 10 mm li shaffof oynadan foydalanilgan.

Mehmonxonadagi supermarket oldida musiqali favvora joylashtirilgan. Bundan tashqari atrofda aholi uchun dam olish hududlari tashkillashtirilgan. Binoning old qismida ham 2 ta kichik favvora loyihalashtirilgan.

Mehmonxonaning yer osti qismida , injiner kamunikatsiyalari uchun kerakli bo’lgan xonalar va shu bilan birga yer osti mashinalar turishi uchun joy ya’ni garaj ajratilgan. Yer osti qismida joylashgan xonalar quyidagilardan iborat: shammolatish kamerasi, elektroshit qutisi, nasosxona, qozonxona, kir yuvish xonasi, texnik xodimlar xonasi, yopiq basseyn, sauna, klub, fotostudiya, 3D kinozal, billiard zali va yordamchi xonalar joylashtirilgan.

YERTO'LA TARXI




Mehmonxonaning birinchi qavati asosiy qavat hisoblanib, unda kerakli xonalar joylashtirilgan. Ular quyidagilardan iborat: vestibyul, ro'yxatga olish xonasi, garderoab, valyuta almashtirish punkti, pochta va telefon bo'limi, supermarket omborxonasi bilan, tibbiyot xonasi, bo'lim boshlig'i xonalari, stol tennisi, trenajyor zali va xafsizlik nazorat xonalari joylashgan. Vestibyul o'zaro zina va liftlar bilan bog'liq. Bundan tashqari

1-QAVAT TARXI

Architectural floor plan of the 1st floor (1-QAVAT TARXI) of a building. The plan shows a central corridor (1) leading to a reception area (2). To the left is a large hall (9) containing a supermarket, a tennis court, and a kitchen. To the right is a service area (3) with a reception desk, a storage room, and a parking lot. The plan also includes a large outdoor area (4) with a swimming pool, a playground, and a parking lot. The building is surrounded by a fence and has a main entrance (5) and a side entrance (6).


Bundan tashqari 2-qavatdan 9-qavatgacha bufet, choyshablarni almashtirish xonasi, har bir qavatda alohida sanuzel xonalari, shuningdek 2-qavatdan 10 qavatgacha navbatchi xonalari joylashtirilgan.

2-QAVAT TARXI




Binoning uchinchi qavatida 200 o'rinli restoran oshxonasi va yordamchi xonalari bilan, 85 o'rinli kino va konferensiya zali, kutubxona va mehmonxona nomerlari joylashtirilgan. Restoran jahon standartlari talablariga to'liq javob beradigan qilib loyihalangan. 85 o'rinli kino va konferensiya zalida turli xil uchrashuv va tadbirlar o'tkazish ham mumkin. Bu kino va konferensiya zali qurilish me'yorlari va qoidalariga asosan loyihalangan.

4-9-qavatlar tarxi



Mehmonxonaning 10-qavatida lyuks va apartament nomerlari joylashtirilgan. Mehmonxonaning 10-qavatida B va C blok tomlariga chiqish uchun eshiklar mavjud. D blokidagi zina va liftlar orqali 10- qavat tomiga chiqish mumkin. Binoning vestibyl qismida ikki tomondan zinalar berilgan. Bino atrofi o'ziga hos tarzda bezatilgan. mehmonxona tarzida o'zbek milliy uslublaridan foydalanildi.

10 - QAVAT TARXI




Mehmonxonaning perspektiv ko'rinishlari





Mehmonxona bosh plani



Mehmonxona bosh tarzi



Mehmonxona yon tarzi



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov. " Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz" - Ozbekiston 2000 yil.
2. Ubaydullaev X.M. Xudoyberganova N.SH. "Mehmonxonalarni arxitekturaviy muammolari va yechimlari", Jurnal " Me'morchilik va qurilish muammolari.
3. Ubaydullaev X.M. Xudoyberganov N.SH. " Mehmonxona binolarining arxitekturaviy yechimidagi yangi g'oyalari". Jurnal - O'zbekiston arxitekturasi va qurilish 2003 y.
4. Ubaydullaev X.M. dots. Abdurahmonov Y.I. arx. Setmamatov M.B. "Jamoat binolari tipalaogiyasi " 2-qism Toshkent.

QURILISH KONSTRUKSIYALARI BO'LIMI

Rahbar: Inog'omov B.
Maslahatchi: Yusufxo'jayev S.
Bitiruvchi: Satinbayev A.

Toshkent 2015

Kirish

Binolar odamlar yashashi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarining asosiylaridan biri hisoblanadi. Uy-joy qurilish masalasi muhim muammo xisoblanadi, uni hal qilish jamiyatni yanada rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Respublikamiz tabiiy sharoitga xos bo'lgan rayonlarda qurilishlar quruvchilardan katta bilim loyihalash maxsus qoidalar (SNIP) asosida amalga oshiriladi. Turar-joy binolari, jamoat binolari, va ma'muriy binolarda yer ustki va yer ostki qismlari bo'lib, ular binolarning asosiy konstruktiv elementlardan, ya'ni poydevorlar, devorlar, qavatlararo yopmalar, alohida tayanchlar, tom, deraza, eshiklar, zinalar hamda ichki to'siq (parda) devorlardan iborat bo'ladi.

Qurilish kanstruksiyasi - deganda, bino va inshoatlarda alohida olingan vazifani bajarishga mo'ljallangan, bir-biri bilan o'zaro bog'langan, bir yoki bir necha materiallardan tayyorlangan elementlar yoki detallar majmuasi tushuniladi.

Qurilish konstruksiyalari tayyorlangan materialiga ko'ra metall, beton va temir-beton, tosh, yog'och va plastmassa kanstruksiyalariga bo'linadi.

Mehmonxona binosining konstruksiyasi

Loyihalashtirilayotgan Toshkent shahri uchun qurilayotgan 500 o'rinli Mehmonxona 4 blokdan iborat. Mehmonxona o'n qavatdan iborat bo'lib H harfi shaklida loyihalashtirilgan. Shu jumladan mehmonxona yerto'la qismini ham o'z ichiga olgan. Yuk

ko'taruvchi konstruksiyalari temir-betondan tashkil topgan. Mehmonxonaning tomoshabinlar zalining konstruksiyasi quyma beton (monolit) konstruksiya bo'lib juda mustahkam va olovbardoshdir, uning tom yopma qismi tashqi ta'sir va yuklardan izolyatsiyalangan. Mehmonxona loyihasiga ko'ra asosan mehmonxonada dam oluvchilar uchun bassen, trenajorni zali, sauna, va turli sport maydonchalari joylashtirilgan. Mehmonxona binosining ora yopma qismi va tashqi devorlari temirbeton konstruksiya asosida loyihalashtirilgan.

Poydevor

Bino va inshootlardan tushayotgan yukni zaminga uzatadigan yer osti qismi poydevor deb ataladi.

Temir-beton poydevorlarning qo'llanilishi ularni joylashtirish chuqurligini kamaytirishga imkon beradi. Bunda yer qazish ishlariga va poydevorni ko'tarishga ketadigan xarajatlar ancha kamayadi. Bunday poydevorlarning muhim afzalligi — ishlarning industrialashtirilganligidir.

Temir-beton poydevorlar uch turga: alohida turuvchi, ustunlar ostida yoki devorlar ostida quriluvchi lentali xillarga ajratiladi. Alohida turuvchi va lentasimon (uzluksiz) poydevorlar yig'ma yoki yaxlit bo'lishi mumkin.



Poydevor - bino va inshootlarning mustahkamlik, turg'unlik, texnologik tuzilish, uzoq muddat ishlashi, hamda iqtisodiy talablarga javob berishi kerak. Poydevorlar asosan tashqi kuch ta'siriga chidamliligi jihatidan biki, ularning materiallari faqat siqilishga chidab, egilishga chidamaydi. Poydevorlarni qurishda yog'och, xarsang tosh, xarsangtosh beton, beton, va temirbeton kabi materiallardan foydalaniladi. Poydevor binosining asosiy konstruksiv elementlaridan biri xisoblanib, u binoning yer ustki qismidan tushayotgan og'irlikni asosga uzatib turadi. Binoning yer to'la qismi bo'lsa, poydevorlari yer to'la xonalarini o'rab turuvchi konstruksiya vazifasini ham o'taydi.

Ushbu loyihaning poydevori ustun ostiga o'rnatiladigan poydevor bo'lib, ularning eni 1,2 metr va balandligi 0.5 metr qilib loyihalangan, bu poydevor juda qulay va karkasli binolar uchun samarali hisoblanadi.

Karkas

Karkas bu - binoning asosi bo'lib, bo'ylama va ko'ndalang konstruktiv elementdir. Loyihaning karkaslar orasidagi kardinata o'qlari orasidagi oralig'lari 7200, 6600 va 5400 mm dan iborat. Binoning har bir bloki seysmik chok bilan ajratilgan. Seysmik chok - tabiiy ofatlar, jumladan zilzila va tebranishlar yuzaga kelganda bino bloklarining har bir karkasilari alohida ishlashiga zamin yaratadi.

Keng tarqalgan konstruktiv yechim bu — temir-beton yoki metallardan qilingan (sinch) karkas konstruksiyali imoratlardir. Bunday konstruksiyalar chet ellarda, xususan, respublikamizda keng tarqalgan. Ayniqsa, fuqaro binolarida temir-beton, sanoat inshootlarida esa metallardan qilingan sinchli konstruksiyalarni qayd qilish mumkin.

Devorlar va parda devorlar

Devor - binoning asosiy konstruktiv elementlaridan biri bo'lib, u tashqi muhit ta'siridan himoyalashdan tashqari ko'p hollarda o'ziga qo'yilgan qavatlararo yopma va tom og'irligini ko'tarish vazifasini ham bajaradi. Binoning devorlari turli-tuman tashqi kuchlar va tashqi muhit ta'siri ostida bo'ladi. Devorlar o'z xususiy og'irligi, tom va qavatlararo yopmalardan tushadigan doimiy va vaqtinchalik yuklar, shamol kuchi ta'sirini, asosning notekis cho'kishidan hosil bo'lgan deformatsiyalarni, zilzila kuchlari va boshqalarni qabul qiladi. Devorlar tashqi tomondan quyosh radiatsiyasi yog'in-sochin, o'zgaruvchan temperatura va havo namligi, shovqinlar, ichki tomondan esa issiqlik oqimi, suv, bug', shovqin, kabi ta'sirlar ostida bo'ladi. Mehmonxona binosining

asosiy kuch tushadigan devorlari qalinligi 400 mm ni tashkil qiladi. Ichki parda devorlar asosan xonalarni ajratuchi konstruktiv element bo'lib, mustahkam, ustuvor, olovbardoshlilik va shovqindan saqlash talablariga javob berishi kerak.

Bino loyihasini yaratishda devorlarning o'rni, ularning konstruktiv sxemasi va turini tanlashga katta e'tibor beriladi. Bino devorlari mustahkam, ustivor, fazoviy biki, olovbardosh bo'lishi, xona ichida ma'lum harorat va namlik rejimini ta'minlashi, shovqindan etarli darajada himoya qilishi, o'rnatilishida texnologik jihatdan qulay, tejamli va arzon bolishi, me'moriy talablarga javob beradigan bo'lishi lozim. Tashqi devorlarda, odatda, bino ichini tabiiy yorug'lik bilan ta'minlash uchun deraza o'rni, xonaga kirish, balkon va ayvonlarga chiqish uchun eshik o'rni qoldiriladi. Deraza va eshik o'rnatilgan devorlar ham o'z navbatida yuqorida keltirilgan talablarga javob berishi lozim.

Tashqi devorlar va ular bilan birgalikda binoning boshqa elementlarini bino qurilayotgan joyning tabiiy iqlim va geologik shart-sharoitlariga hamda hajmiy rejalashtirish yechimlarini hisobga olgan holda vertikal deformatsiya choklari orqali qismlarga ajratiladi. Deformatsiya choklari temperatura, cho'kish va zilzilaga qarshi choklarga bo'linadi.



Mehmonxona qurilish jarayonidan namuna

Eshik va deraza elementlari

Deraza va vitrajlar xonalarni tabiiy yorug'lik bilan ta'minlovchi asosiy konstruksiya bo'lib hisoblanadi. Eshik va rom, vitraj elementlari o'rnatilgan tartibida QMQ va SHNK talablari asosida loyihalashtirilgan bo'lib, insulyatsiya, olovbardoshlik, mo'tadil darajadagi xaroratni saqlash va zamonaviy me'morchilik talablariga javob berish kerak. Mazkur elementlar talab bo'yicha yog'och, alyuminiy, plastik ashyolar va quyosh nurlarini kamaytiruvchi oynalardan tayyorlanadi.

Derazalar bir qavat, ikki va uch qavat oynalangan bo'lishi mumkin. Bir qavat oynalangan derazalar issiq iqlimli rayonlarda ishlatiladi. Iqlimi yumshoq rayonlarda joylashgan binolarda ikki qavat oynalangan

derazalar qo'llanilib, bunda oynalar oralig'ida ma'lum qalinlikda havo qatlami bo'ladi. Qattiq sovuq iqlimi rayonlarda uch qavat qilib oynalangan derazalar ishlatiladi.

Derazalar asosan uch xil konstruktiv elementdan, ya'ni deraza romi (kesakisi), panjarasi va deraza osti taxtasidan iborat bo'ladi. Deraza kesakisi yog'och g'o'la va taxtalardan yasalib, ularga deraza panjaralari mahkamlanadi. Katta derazalarning mustahkamligini oshirish uchun ularning kesakisi ichidan qo'shimcha vertikal va gorizontaal taxtachalar o'rnatiladi.

Derazaning yuqori qismida joylashgan ochilmaydigan bo'lagi "framuga" deb ataladi. Deraza tavaqalari va framugani o'rab turuvchi (karkas) va uni orasida (ichida) joylashgan hamda tavaqalari kichik turlarga ajratuvchi gorizontaal va vertikal bruslar deraza panjaralari deb ataladi.

Zinapoyalar

Ma'lumki bino va inshootlarning yuqoriga chiqib, pastga tushiladigan qismida zinapoyalar o'rnatiladi. Ular turiga ko'ra temir-beton, metall konstruksiya va yog'ochdan tayyorlanadi. Zinalar bino va inshootlarni bezaydigan me'morchilik elementni hisoblanadi. Agar zina bilan chiqiladigan joy ancha baland bo'lsa zinalar bir necha marshga bo'lib quriladi.

500 o'rinli mehmonxona binosining vestibulida ikki tomondan keyingi qavatga chiqish uchun zinalar, va birinchi qavatda restoranga chiqish uchun qo'shimcha zina qo'yilgan. Ushbu

zinalar temir betondan qilingan bo'lib, yuqori qavatlarda tomga chiqish uchun eshiklar va balkonlar berilgan. Zinapoyalar xavsizlikni ta'minlash maqsadida ustivorlik, olovbardoshlik, mustahkamligi talablari bajarilgan, hamda ximoya ushlagichlari o'rnatilgan.



Turar-joy binolarida zinapoyalar bir yoki ikki marshli, ba'zan uch marshli bo'lishi mumkin. Qavatlararo aloqa zinalar va liftlar yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan birga zinalardan avariya sharoitida kishilarni evakuatsiya qilishda ham foydalaniladi. Zinalar mustahkam, pishiq va odamlar harakati uchun qulay va xavfsiz hamda yong'indan muhofazalangan bo'lishi kerak.

Zinalarni bino tarxida joylashtirish, ularning soni va o'lchamlari binoning vazifasiga, katta-kichikligiga va belgilangan vaqtda kishilarni evakuatsiya qilish uchun qulaylik ta'minlanishiga qarab aniqlanadi.

Masalan, turar joy binolarida zinalar soni kamida ikkita bo'lishi, o'n va undan ortiq qavatli turar-joy binolarida har bir kvartiradan to'g'ridan-to'g'ri yoki bog'lovchi o'tish yo'li orqali ikkita zinaga chiqishni ta'minlanishi kerak.

Vazifasiga ko'ra zinalar: asosiy yoki bosh zina, har doim ishlatiluvchi xizmat zinas, evakuatsiya zinas, yordamchi zina, xizmat paytida foydalaniladigan va avariya zinalari, tashqi evakuatsiya zinalari, o't o'chiruvchilar zinas kabi turlarga bo'linadi.

LIFTLAR

Odamlar va yuklar vertikal yo'nalish bo'yicha tashish uchun mo'ljallangan kabinali muhim ko'tarish ishlari liftlar tomonidan amalga oshiriladi. Elektr yordamida kanatli chig'ir bilan ko'tarib tushiruvchi mexanik lift eng keng tarqalgan. Liftlar harakatlanishiga ko'ra sekin (1m/sek), tez(1.5m/ sek) va juda tez (3,5m/sek va undan ortiq) xarakatlanish xillari bor. Xavsizlikni ta'minlash uchun kabinalar kamida 2 kanatda ishlaydi. Liftlarning xavsiz ishlashini ta'minlash maqsadida kabinani ushlab qoluvchi va tezlikni cheklovchi qurilmalar o'rnatiladi. Mehmonxonadagi 11 ta lift mavjud bo'lib, shulardan 4 ta lift yuk ko'tarishga mo'ljallangan. Qolgan 7 ta liftning 3 tasi xizmatchilarga va 4 tasi mexmonxona mijozlari uchun mo'ljallangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov B.A. Qurilish konstruksiyalari. T., O'zbekiston, 1995 .
2. Asqarov B.A., Nizomov Sh.R. Temirbeton va tosh-g'isht konstruksiyalari. T., Iqtisod-moliya, 2008.
3. Байков В.Н., Сигалов Э.Е. Железобетонные конструкции. М., 1991.
4. Анализ причин аварий и повреждений строительных конструкций. — М.: “Стройиздат”, 1973.
5. Qambarov X. U. Turar-joy binolarining konstruktiv elementlari. (o'quv qo'llanma.) — T., “o'qituvchi”, 1992.
6. QMQ 2.01.03-96 “Zilzilaviy hududlarda qurilish”.
7. QMQ 2.02.01-98 “Bino va inshootlar zaminlari”.
8. QMQ 2.08.01-94 “Turar-joy binolari”.
9. QMQ 1.02.07-97 “Qurilish uchun muhandislik izlanishlar”.
10. Rasulov X.Z. Zamin va poydevorlar. (o'quv qo'llanma.) — T., “O'qituvchi”, 1993.
11. **Туйчиев Н.Ж.** Оптимальное проектирование железобетонных конструкций. (Монография.) — Т., “Фан”, 1991.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA MEHNAT MUHOFAZASI BO'LIMI

Rahbar: Inog'omov B.

Maslaxatchi: Azimov X.

Bitiruvchi: Satinbayev A.

Toshkent 2015

Reja:

1. Mehnat xavfsizlik bo'limining maqsadi va vazifasi.
2. Qurilishda mehnat sanitariyasi va gigiyenasi.
3. Texnika xavfsizligi.
4. Yong'in xavfsizligi.

1. 500 o'rinli mehmonxona qurilishida xavfsizlik bo'limining maqsadi va vazifasi

Mehnat xavfsizligining zamonaviy qurilishdagi maqsadi ishchi va xizmatchilarning yashashi va mehnat jarayonida sog'ligini saqlash, ya'ni kasbiy kasalliklar, tasodifiy jarohatlanish kabi baxtsiz hodisalarni oldini olishdan xamda, tabiiy, texnogen texnika va harakat xavfsizligi sabablariga ko'ra ishchilarning sog'lig'ini, mehnat qobiliyatlarini saqlash, shikastlanish, nurlanish, avariya, yong'in va boshqa kasalliklarini oldini olish va bu sohadagi qonunchilik hamda mehnat muhofazasiga bag'ishlangan boshqa me'yoriy hujjatlarni o'rgatishdan iboratdir.

Mehnat xavfsizligi bo'limining asosiy vazifalari qurilish maydonlarida va uning bilan bog'liq bo'lgan ish jarayonlarida sodir bo'ladigan jarohatlanish va boshqa baxtsizliklarni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf qilish, ishchi va xizmatchilar uchun ish sharoitini yaxshilab berish, ustidan nazorat qilib turishi, fan va texnika yutuqlarini joriy qilish asosida mehnat xavfsizligi va himoya vositalarini mutassil takomillashtirish, qurilishda mehnat madaniyatini oshirish, baxtsizliklarni oldini olishga qaratilgan tashkiliy va texnik hamda, sanitariya tadbirlarini ishlab chiqish, ularni joriy qilish va hokazolardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis 1995 yil 21-dekabrda 161-1 raqamli O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini tasdiqladi. Respublikamizda mehnatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Kanst

itutsiyasida va O'z- bekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi" Qonunda mustahkamlangan. Ushbu Qonun ishlab chiqarish va dam olish maskanlarda, mehmonxonalar-da mehnatni muxofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi, xamda fuqarolarning sog'lig'i va mehnatning muxofaza qilinishini ta'minlashga qaratilgan.


Mehnat muhofaza qilish - bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy xujjatlar asosida amal qiluvchi, insoning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sixat-salomatligi va ish qobiliyatini saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy xamda vositalari tizimidan iborat.

Shu bilan birga Toshkent shahrimizda qurilayotgan binolarda, Jamoat binolariga, turar-joy binolariga katta e'tibor berish kerak. Loyihalashtirilayotgan 500 o'rinli Mehmonxona Toshkent shahrining Shayhontoxur tumanidagi "Furqat" va "Alisher Navoiy" ko'chalari kesishuvida joylashgan. Binoda mehnat xavfsizligining ta'minlanishi asosiy talablardan biri hisoblanadi. Binoda ishlayotgan ishchilar va boshqa xodimlarning sog'lig'ini saqlash, tasodifiy jarohatlanish kabi baxtsiz hodisalarni oldini olish talab etiladi.

2. Qurilishda mehnat sanitariyasi va gigiyenasi

Mehnat gigiyenasi - u ish jarayoniga atrof muhitni ishlayotganlar organizmiga ta'sirini o'rganadi va undan sanitar-gigienik hamda davolash-profilaktika choralar ko'rish maqsadida foydalaniladi. Bu ishlar ish joylarida sharoitini yanada yaxshilashga qaratiladi. Bu esa ishlab chiqarish jamoalarining ish qobiliyatini sog'lom va yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

Toshkent shahri uchun shamol grafigi:



Qurilishda ishchilarning mehnat faoliyatini yaxshilash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilishi va har bir ishchi tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi kerak. Ular changli ishlarni bajarayotgan vaqtida og'iz va burunlariga resperator, ko'zlariga esa himoya ko'z oynaklari taqishlari, qo'llariga maxsus himoya qo'lqoplarini kiyishlari kerak.

Toshkent shahrining Shayhontoxur tumanidagi "Furqat" va "Alisher Navoiy" ko'chalari kesishuvida loyihalashtirilgan 500 o'rinli Mehmonxona binosi dan foydalanishda va qurilishda mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun ishchilarning ish paytida shikastlanishlarini oldini olish uchun quyidagi tadbirlar bajarilgan.

Dam olish va ish jarayonida shikastlanishlarni oldini olish va gigiyena birdan bir asosiy shartidir. Agar kishi kun mobaynida uzluksiz me'yorida ko'rsatilgan vaqtdan ortiqcha ishlasa, unda jismoniy charchash bilan bir qatorda ruhiy charchash ham paydobo'lishi mumkin. Buning ustiga agar ishchiga uzoq vaqt mobaynida juda ko'p qarorlar qabul qilish yoki juda ko'p asboblarning ko'rsatkichlariga qarash to'g'ri kelsa, unda ruhiy charchash jismoniy charchashdan oldin kelishi mumkin. Ish paytida shovqin, titrash, gaz, chang va nurlanishning bo'lishi ruhiy charchashni tezlashtiradi va kishining noto'g'ri harakat qilishiga, shikastlanishiga yoki avariya xolatining vujudga kelishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ma'muriyat ish va dam olish tartibiga qat'iy rioya qilish kerak. Shu bilan birga mehmonxona xodimlariga yechinib kiyinish, gigiyena xonasi va yuvinish xonalari tashkil etilishi, ayniqsa mehmonxonada dam oluvchilar ovq

atlanish joyda ya'ni restaranda sanitariya gigiyenasiga katta e'tibor berishkerak.

Mehmonxona qurilishida ishlaydigan ishchilarga har tomonloma sharoit yaratib berish lozim. Ular barcha shart-sharoitlar bilan ta'minlanishi shart. Bundan tashqari qurilish joyidagi sanitariya gigiyena sharoitlari ham nazorat ostida bo'lishi va barchaning bunga amal qilishi belgilab qo'yilishi kerak. Aynan shunday nazorat qilish choralari kuchaytirilsa, qurilish obyektida bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz xodisalarning ham oldini olish mumkin bo'ladi.

Gigiyenik talablarning bajarilmasligi oqibatida turli xil kasalliklar kelib chiqishi va bu atrof muhitga ham jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatning oldini olish maqsadida qurilish obyektida aynan sanitariya va gigiyena bilan shug'ullanuvchi shaxslar tayinlangan bo'lishi shart.

3. Texnika xavfsizligi

Qurilish maydonida ish boshlashdan oldin buyurtmachi tomonidan bosh pudrat tashkilotiga barcha qurilish loyihalari to'liq ishlangan holda taqdim etilishi lozim. Bu loyihalar tarkibidagi ularning ajralmas qismi hisoblanuvchi qurilishni tashkil qilish loyihalari bo'lmog'i shart va ularda xavfsizlikni ta'minlash masalalarini hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan holda to'liq aks ettirilgan.

Mehnatni muhofaza qilishda zarur bo'lgan chora-tadbirlar loyihalash davrida ikki bosqichda hal etiladi.

Birinchi bosqich loyihalash davrida qurilishni tashkil qilish loyihasini tuzish, ya'ni qurilishdagi umumiy xavfsizlikni ta'minlovchi tadbirlarni olib borishdir. Ikkinchi bosqich qurilish chog'ida surunkali davom etadigan ishlarni bajarish jarayonida xavfsizlikni ta'minlaydigan ishni bajarish jarayonida xavfsizlikni ta'minlaydigan ishni bajarish loyihasini tuzib so'ngra ushbu loyiha asosida ishni davom ettirishadi.

4. Yong'in xavfsizligi

Toshkent shahri uchun loyihalanayotgan 500 o'rinli Mehmonxona yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda yong'inga qarshi tadbirlar inobatga olingan. Ushbu Mehmonxona yong'in paytida ishchi xodimlar, va mehmonxonada dam oluvchilarni ko'chaga tezroq olib chiqishi uchun ikkita tomondan va yo'laklar oxirida ikkita zinalar joylashtirilgan. Mehmonxona ko'rinishdan H harfi shaklida loyihalangan bo'lib, unda birinchi qavat kirish qismi va xizmat ko'rsatishga mo'ljallab loyihalangan. Ikkinchi va uchinchi qavatlar da Kafe va Restoran hamda Konferens zal uchun maydon ajratilgan. To'rtinchi qavatdan to'qqizinchi qavatgacha mehmonxona nomerlari loyihalangan.

Mehmonxonaning A bloki 10 qavatni tashkil etib 10-qavatda apartament va lyuks nomerlar joylashtirilgan. Mehmonxona to'rt blokka bo'lib loyihalangan. B va C blokda mehmonlar va yuk tashishga mo'ljallangan bittadan liftlar mavjud. A blokida esa ikkita dan liftlar va D blokigi markaziy restoran mijozlari uchun zina joylashtirilgan. Mehmon-xonaning D bloki 3 qavatdan iborat.

Mehmonxonaning har bir qavatida evakuatsiya uchun zinalar mavjud. Bino atrofida o't o'chirish mashinalari xarakatlanishi uchun 20 metrli yo'l loyihalangan. Bundan tashqari binoning orqa tomonida ochiq suv xavzasi (basseyn) joylashtirilgan. Mehmonxonaning yong'indan asosiy himoyasidan biri loyihada qo'llanilgan qurilish ashyolarini to'g'ri tanlanganligidan iboratdir. Mehmonxona har bir nomerlari uchun yong'in xavfsizligi choralari malum adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi. Asosiy o't o'chirish bo'limlarini joylashish radiusi ham hisobga olindi. Mehmonxonanomerlari va xizmat ko'rsatuvchi xonalar yong'in gidrantlari bilan ta'minlandi.

Yong'inni tez bartaraf etish uchun ko'pgina rivojlangan davlatlarda ommalashgan SPRINKER li avtomatik tizimi taklif etildi. Standart sprinker eruvchan ventilkorinishida bo'lib, yong'in paytida ventil teshigi erishi natijasida yuqori bosim ostida-gi suv yong'inni o'chiradi. Sprinkerni 3 - 4 metr masofa bilan o'rnatiladi. Mehmon-xona binolarida sprinker tizimining chiqindi quvurlari, yer ostida joylashgan.

Sprinker tizimi iqtisodiy jihatidan tejamkor hisoblanadi. Agar mobodo yong'in chiqsa, yong'in havfsizligi xodimlari kelgunga qadar, alanganishni ma'lum miqdorda kamaytiradi. Ya'ni uni har bir obyektga individual holda hisoblab, analiz qilganholda tavsiya etiladi. Yoki birlashtirilgan sprinkler tizimi va mahalliy o't o'chirish asboblardan foydalanish mumkin.

Taklif etilayotgan loyihaning birinchi va ikkinchi qavatlaridagi maishiy xizmat ko'rsatish qismlarida sprinkler tizimini qo'llash tavsiya etiladi.

Yong'in havfi nisbatan kamroq bo'lsa, mahalliy o't o'chirish tizimlari qo'llaniladi. Binoning birinchi qavatida ham yong'in havfsizligi me'yorlariga binoan ta'shvariga ochiladigan, umumiy og'irligi yong'in paytida erkin ochish mumkin bo'lgan metall eshiklar loyihalangan. Eshiklarda ochilmaydigan framugalar ham ko'zda tutilgan. Binolarda yong'in chiqish havfini va undan zararlanish miqdorini minimal darajagayetkazishga alohida e'tibor berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimov X.A."Qurilishda mehnat xavfsizligi". I qism, Toshkent-2003 y.
2. Azimov X.A."Qurilishda mehnat xavfsizligi". III qism. Toshkent.
3. QMQ 2.01.01-94. "Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy – geologik ma'lumotlar".
4. Q.M.Q 3.01.02-00"Qurilishda xavfsizlik texnikasi".
5. SH.N.Q 2.01.02-04. "Bino va inshootlarning yong'in xavfsizligi".
6. M.Otaxonov. "Qurilishda mehnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi". Toshkent-1991 yil.